



THE HARMONY OF SYNTACTIC, MORPHOLOGICAL, AND PHONOLOGICAL MODELS IN TURKIC LANGUAGES

Gulmera Mukhiddinovna Kuchimova

PhD student

Jizzakh State Pedagogical University named after A. Qodiriy

kuchimovagulmera@gmail.com

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: historical analysis, typological analysis, syntactic model, morphological model, phonological model, morphological tools.

Received: 05.12.25

Accepted: 06.12.25

Published: 07.12.25

Abstract: This study covers the theoretical foundations of historical and typological analysis in the study of the morphemic system of Turkic languages. Syntactic, morphological and phonological models common to all Turkic languages and hierarchical and functional features specific to individual Turkic languages are analyzed. In the course of the study, syntactic, morphological and phonological models common to all Turkic languages and hierarchical and functional features specific to individual Turkic languages are analyzed comparatively.

TURKIY TILLARDA SINTAKTIK, MORFOLOGIK VA FONOLOGIK MODELLAR UYG'UNLIGI

Gulmera Muxiddinovna Kuchimova

Tayanch doktoranti

A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti

kuchimovagulmera@gmail.com

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: tarixiy tahlil, tipologik tahlil, sintaktik model, morfologik model, fonologik model, morfologik vositalar.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda turkiy tillarning morfemik tizimini tadqiq etishda tarixiy va tipologik tahlilning nazariy asoslari yoritiladi. Barcha turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan sintaktik, morfologik va fonologik modellar va alohida turkiy tillarga xos bo'lgan ierarxik va funksional xususiyatlari tahlilga tortiladi. Tadqiqot jarayonida barcha turkiy

tillar uchun umumiy bo'lgan sintaktik, morfologik va fonologik modellar hamda alohida turkiy tillarga xos bo'lgan ierarxik va funksional xususiyatlar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi.

ГАРМОНИЯ СИНТАКСИЧЕСКИХ, МОРФОЛОГИЧЕСКИХ И ФОНОЛОГИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В ТЮРКСКИХ ЯЗЫКАХ

Гулмера Мухиддиновна Кучимова

Базовый докторант

Джизакского государственного педагогического университета имени А. Кадыри

kuchimovagulmera@gmail.com

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: исторический анализ, типологический анализ, синтаксическая модель, морфологическая модель, фонологическая модель, морфологический инструментарий.

Аннотация: В данной работе рассматриваются теоретические основы историко-типологического анализа при изучении морфемной системы тюркских языков. Анализируются синтаксические, морфологические и фонологические модели, общие для всех тюркских языков, а также иерархические и функциональные особенности, характерные для отдельных тюркских языков. В ходе исследования проводится сопоставительный анализ синтаксических, морфологических и фонологических моделей, общих для всех тюркских языков, а также иерархических и функциональных особенностей, характерных для отдельных тюркских языков.

Kirish. Turkiy tilda barcha turkiy tillar taraqqiyotining ma'lum bir bosqichi uchun xos bo'lgan ideal shakl mavjud, bundan farqli bo'lgan va chetlangan shakllar o'sha tilning shakllanish jarayonida ichki va tashqi lingvistik omillar ta'sirida paydo bo'lgan.

Bir qator morfemik tadqiqotlarda qo'llanuvchi tarixiy va tipologik tahlil barcha turkiy tillar uchun umumiy sintaktik, morfologik va fonologik modellar hamda har bir turkiy tilga oid o'ziga xos modellarning alohida jihatlarini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, bu tuzilmalarning tegishli lisoniy darajalar orasidagi ierarxiasini aniqlash imkonini beradi. Bu bilan har bir darajadagi modellar va sintaktik ma'nolarning o'ziga xos morfologik vositalar bilan ifodalanishining o'zaro chambarchas bog'liqligini belgilash mumkin bo'ladi. Ya'ni so'zning morfem tuzilishidagi har qanday o'zgarish va o'zak+negiz+qo'shimcha modelidagi o'zgarishlar gap orqali ifodalanadigan fikrga mos ravishda shakllantiriladi, turkiy tillardagi so'zlar va

qo‘shimchalarning morfem strukturasidagi o‘zgarishlar ushbu tillarning kommunikativ jarayonda amal qilinishi va so‘zlovchilarning nutqiy jarayonda qo‘llaydigan tafakkuriy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, bir necha turkiy tilda va xorijiy tillarda “O‘quvchilar maktabga boradi” jumlasining qanday morfologik vositalar bilan ifodalanishida buni yaqqol ko‘rish mumkin.

Turli tillarda ayni fikrni ifodalashga xizmat qiluvchi morfologik/morfemik vositalar

<i>Til</i>	<i>Namuna</i>	<i>Izoh</i>
O‘zbek	<i>O‘quvchilar maktabga boradi</i>	Gapning semantik va struktur shaklini kesim <i>boradi</i> shakllantirgan; u <i>bor</i> o‘zagiga III shaxsning hozirgi-kelasi zamon qo‘shimchasi (-a) hamda –di shaxs-son qo‘shimchasi qo‘shilishi yordamida shakllangan; <i>o‘quvchilar</i> – ega, u <i>o‘qu+v+chi+lar</i> shaklidagi bir o‘zak va ikki so‘z yasovchi va bir so‘zshakl yasovchi qo‘shimchalardan iborat; <i>maktab+ga</i> – hol kesimga harakat o‘rnini ifodalash uchun qo‘shiladi, kesimning semantikasi buni taqozo qiladi. Gap komponentlaridagi qo‘shimchalar ifodalangan fikrga mos ravishda tipik agglyutativ tilning so‘z, shakl yasash va so‘z o‘zgartirish mexanizmiga mos ravishda <i>o‘qi</i>, <i>maktab</i>, <i>bor</i> leksema-morfemalariga qo‘shilgan.
Uyg‘ur	ئوقۇغۇچىلار مەكتەپكە بارىدۇ <i>O‘qug‘uchilar mäktäpkä baridu</i>	Gapning semantik va struktur shaklini kesim <i>بارىدۇ baridu</i> shakllantirgan; u <i>bor</i> o‘zagiga III shaxsning hozirgi-kelasi zamon qo‘shimchasi (-a) hamda –du shaxs-son qo‘shimchasi qo‘shilishi yordamida shakllangan; <i>o‘qug‘uchilar</i> – ega, u ئوقۇغۇچىلار <i>o‘qu+g‘u+chi+lar</i> shaklidagi bir o‘zak va ikki so‘z yasovchi va bir so‘zshakl yasovchi qo‘shimchalardan iborat مەكتەپكە <i>mäktäp+kä</i> – hol kesimga harakat o‘rnini ifodalash uchun qo‘shiladi, kesimning semantikasi buni taqozo qiladi.

		Gap komponentlaridagi qo'shimchalar ifodalangan fikrga mos ravishda tipik agglyutinatativ tilning so'z, shakl yasash va so'z o'zgartirish mexanizmiga mos ravishda <i>o'qu, maktap, bar</i> o'zak morfemalariga qo'shilgan.
Türk	<i>Öğrenciler okula gider</i>	Gapning semantik va struktur shaklini kesim <i>gider</i> shakllantirgan; u <i>git-</i> o'zak morfemasiga III shaxsning hozirgi-kelasi zamon va shaxs-son qo'shimchasi (-er) yordamida shakllangan; <i>Öğrenciler</i> – ega, u <i>öğren+ci+ler</i> shaklidagi bir o'zak va bir so'z yasovchi va bir so'zshakl yasovchi qo'shimchalardan iborat; <i>okul+a</i> – hol kesimga harakat o'rnini ifodalash uchun qo'shiladi, kesimning semantikasi buni taqozo qiladi. Gap komponentlaridagi qo'shimchalar ifodalangan fikrga mos ravishda tipik agglyutinatativ tilning so'z, shakl yasah va so'z o'zgartirish mexanizmiga mos ravishda <i>öğren, okul, git</i> o'zak morfemalariga qo'shilgan.
Qozoq	<i>Оқушылар мектепке барады</i>	Gapning semantik va struktur shaklini kesim <i>барады</i> shakllantirgan; u <i>bar</i> o'zagiga III shaxsning hozirgi-kelasi zamon qo'shimchasi (-a) hamda – <i>ды</i> shaxs-son qo'shimchasi yordamida shakllangan; <i>оқушылар</i> – ega, u <i>оқу+шы+лар</i> shaklidagi bir o'zak va bir so'z yasovchi va bir so'zshakl yasovchi qo'shimchalardan iborat; <i>мектеп+ке</i> – hol kesimga harakat o'rnini ifodalash uchun qo'shiladi, kesimning semantikasi buni taqozo qiladi. Gap komponentlaridagi qo'shimchalar ifodalangan fikrga mos ravishda tipik agglyutinatativ tilning so'z, shakl yasah va so'z o'zgartirish mexanizmiga

		mos ravishda <i>оқу, мектеп, баp</i> o'zak leksema-morfemalariga qo'shilgan.
Tatar	<i>Укучылар мәктәпкә йөрүләр</i>	Gapning semantik va struktur shaklini kesim <i>йөрүләр</i> shakllantirgan; u <i>йөр</i> o'zagiga III shaxsning hozirgi-kelasi zamon qo'shimchasi <i>(-i)</i> hamda – <i>lar</i> shaxs-son qo'shimchasi yordamida shakllangan; <i>укучылар</i> – ega, u <i>уку+чы+лар</i> shaklidagi bir o'zak va bir so'z yasovchi va bir so'zshakl yasovchi qo'shimchalardan iborat; <i>мәктәп+кә</i> – hol kesimga harakat o'rnini ifodalash uchun qo'shiladi, kesimning semantikasi buni taqozo qiladi. Gap komponentlaridagi qo'shimchalar ifodalangan fikrga mos ravishda tipik agglyutativ tilning so'z, shakl yasah va so'z o'zgartirish mexanizmiga mos ravishda <i>уку, мәктәп, йөр</i> o'zak leksema- morfemalariga qo'shilgan.
Rus	<i>Ученики ходят в школу</i>	Gapning semantik va struktur shaklini kesim <i>ходят</i> va ega <i>ученики</i> shakllantirgan (kesim fleksiya usuli bilan <i>ходить</i> o'zagidan yasaladi), ega <i>ученики</i>; u o'zak <i>учить</i> leksemasining flektiv o'zgargan shakliga <i>-ник</i> yasovchi affiks morfemasini hamda <i>-и</i> ko'plik qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. Hol esa <i>в</i> old ko'makchisi va <i>-у</i> morfemasi bilan ifodalangan. Hind-Yevropa til oilasining slavyan tillari guruhiga va sharqiy slavyan tarmog'iga mansub rus tili tipologik (morfologik) jihatdan asosan flektiv, sintetikdir. Binobarin, leksemalarning grammatik ma'nosi, asosan fleksiyalar yordamida uzatiladi. Har bir fleksiya odatda bir vaqtning o'zida bir nechta ma'nolarni ifodalaydi. Jumlaning morfemik tahlilida ana shu xususiyatlar to'liq o'z aksini topgan.

Ingliz	The pupils go to school	Gapning semantik va struktur shaklini kesim <i>go</i> shakllantirgan (<i>to go</i> infinitiv shaklidan), ega <i>the pupils</i>; u o'zak <i>pupil</i> leksemasiga –s shakl yasovchi (ko'plik) morfemasini qo'shish bilan shakllangan. Hol esa <i>to</i> old ko'makchisi va <i>school</i> o'zak morfemasi bilan ifodalangan. Hind-Yevropa tillari oilasining g'arbiy german tillari guruhi ingliz-friz bo'limiga kiruvchi ingliz tili sintetik tillarga qaraganda analitik tillarga yaqinroqdir. Unda grammatik munosabatlar ko'pincha morfologik yo'l bilan so'z o'zgarishi bilan emas, balki sintaktik yo'l bilan gapda yordamchi so'zlar yoki boshqa usullardan foydalanilgan holda ifodalanadi. Masalan, ingliz tilida grammatik ma'nolarni ifodalash uchun modal fe'llar, yuklamalar, barqaror so'z tartibi qo'llaniladi. Jumlaning morfemik tahlilida ana shu xususiyatlar to'liq o'z aksini topgan.
Fors	دانش آموزان به مدرسه می روند <i>Doneshomuzon ba madrasa miravand</i>	Gapning semantik va struktur shaklini kesim <i>miravand</i> shakllantirgan (u analitik usul bilan <i>rav (raftan)</i> o'zagidan yasaladi), ega <i>doneshomuzon</i>; u o'zak <i>donesh</i> leksemasiga <i>omuz</i> yasovchi affiks morfemasini hamda <i>on</i> ko'plik qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan. Hol esa <i>ba</i> old ko'makchisi va <i>madrasa</i> morfemasi bilan ifodalangan. Hind-Yevropa til oilasining hind-eron tillari guruhiga va eron tillarining janubiy tarmog'iga mansub Fors tilining grammatik tuzilishini agglyutinatsiya elementlari bilan flektiv-analitik sifatida tavsiflash mumkin. Fe'ning kelishigi flektiv bo'lib, bunda shaxs-sonlari shaxs va son ma'nolarini birlashtiradi, fe'ning ko'plab aspektual-temporal va modal shakllari analitik tarzda ifodalanadi. Aksariyat nominal kategoriyalar analitik tarzda ham ifodalanadi, bundan tashqari, agglyutinatipdagi nominal affikslar ham mavjud. Yuqoridagi

		jumlada kesim va eganing morfemik shakllanishida shuni ko'ramiz.
--	--	--

Xulosa shuki, turkiy tillar uchun o'ziga xos va umuman tillarga xos lingvistik universalialarni realizatsiya qilishni hamda qanday lisoniy vosita va birliklarni qo'llashni belgilovchi konstantalar $\rightarrow$ inson tafakkurida amalga oshadigan mental harakatlardir. Yuqorida sanab o'tilgan tillarning barchasida "O'quvchilar maktabga boradi", ya'ni "The pupils go to school" shaklidagi fikrni ifodalovchi universal mental qolip bor, faqat ular har bir tilning o'z jumla qurilish qolipi va shunga ko'ra tanlanuvchi lisoniy vositalar (so'z-o'zak, yasovchi, shakl yasovchi va so'z o'zgartiruvchi morfemalar, fleksiya, analitik va sintetik usulda ma'no anglatish) orqali ifodalanadi. Turkiy tillardagi lisoniy model, sintaktik qurilish, morfemik/morfologik konstantalar agglyutinatsiyaning asosida turadi. Morfemik tizimning shakllanishida hamda rivojlanishida tarixiy omillar va tipologik uyg'unlikning tutgan o'rni aniqlanadi. Shuningdek, lisoniy darajalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ierarxik munosabatlari ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Баскаков Н. А. К проблеме историко-типологического изучения грамматики тюркских языков // Вопросы языкознания. - М., 1969. - № 4. - С. 56-64.
2. Реформатский А.А. Агглютинация и фузия как две тенденции грамматического строения слова //Лингвистика и поэтика. - М., 1987. - С. 52-76.
3. Боровков А.К. Агглютинация и флексия в тюркских языках / В кн.: "Памяти академика Льва Владимировича Щербы (1880—1944)". -Л., 1951, с. 117-125.
4. Волошина О.А. Роль санскрита в становлении лингвистической теории Ф. Ф. Фортунатова. Ученые записки Петрозаводского Государственного университета. Языкознание. № 3 (180). 2019. -С. 81–88.
5. Боровков А.К. Агглютинация и флексия в тюркских языках / В кн.: "Памяти академика Льва Владимировича Щербы (1880—1944)". -Л., 1951, с. 117-125.